



**MUSTAQILLIK YILLARIDA BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDAGI
O‘ZGARISHLAR
(FARG‘ONA VILOYATI MISOLIDA)**

Abdullayev Ravshanjon Inomjon o‘g‘li

Qo‘qon universiteti dotsenti

Umarova Durdona No‘monjon qizi

udurdona418@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur bitiruv malakaviy ishida aynan boshlang‘ich ta‘lim tizimidagi o‘zgarishlar misolida mustaqillikdan keyingi ta‘lim islohotlarining mazmun-mohiyati tahlil qilinadi. Xususan, ta‘limning g‘oyaviy yo‘nalishidagi yangilanishlar, o‘quv mazmunining milliy lashtirilishi, tarbiyaviy komponentlarning kuchaytirilishi hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning joriy etilishi ilmiy asosda yoritib beriladi. Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida O‘zbekiston mustaqilligining ilk yillarida ta‘lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar yoritib beriladi. Xususan, ta‘lim sohasini yangi ijtimoiy sharoitlarga mos ravishda rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarning joriy etilishi tahlil qilinadi. Ushbu huquqiy asoslar ta‘lim mazmunini yangilash, uni milliy qadriyatlar asosida tashkil etish hamda uzluksiz ta‘lim tizimini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta‘lim, “Ta‘lim to‘g‘risidagi qonun”, darsliklar, kadrlar tizimi, Qo‘qon universiteti.

Abstrack: This graduation qualification work analyzes the essence of educational reforms after independence, using the example of changes in the primary education system. In particular, the updates in the ideological direction of education, the nationalization of educational content, the strengthening of educational components, and the introduction of modern pedagogical approaches are scientifically highlighted. The introductory part of the graduation qualification work highlights the reforms implemented in the education system in the first years of



Uzbekistan's independence. In particular, the introduction of regulatory and legal acts aimed at developing the education sector in accordance with new social conditions is analyzed. These legal frameworks have played an important role in updating the content of education, organizing it on the basis of national values, and forming a continuous education system.

Keywords: *Primary education, "Law on Education", textbooks, personnel system, Kokand University.*

Аннотация: *Данная выпускная квалификационная работа анализирует сущность образовательных реформ после обретения независимости на примере изменений в системе начального образования. В частности, научно освещаются обновления идеологического направления образования, национализация содержания образования, укрепление образовательных компонентов и внедрение современных педагогических подходов. Вводная часть выпускной квалификационной работы освещает реформы, реализованные в системе образования в первые годы независимости Узбекистана. В частности, анализируется введение нормативно-правовых актов, направленных на развитие сектора образования в соответствии с новыми социальными условиями. Эти правовые рамки сыграли важную роль в обновлении содержания образования, его организации на основе национальных ценностей и формировании системы непрерывного образования.*

Ключевые слова: *Начальное образование, «Закон об образовании», учебники, кадровая система, Университет Коканд.*

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng jamiyat hayotining barcha jabhalarida tub islohotlar amalga oshirila boshlandi. Mazkur yangilanish jarayonlari eng avvalo ta'lim tizimida yaqqol namoyon bo'ldi. Chunki ta'lim jamiyat taraqqiyotining strategik omili sifatida yangi davlatning siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishida hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu bois mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ta'lim tizimini zamonaviy talablar asosida qayta tashkil etish, uni mafkuraviy jihatdan yangilash va milliy qadriyatlar bilan boyitish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.



Sobiq sovet davrida ta'lim mazmuni asosan hukmron mafkuraga xizmat qilgan bo'lsa, mustaqillikdan so'ng uning g'oyaviy-tarbiyaviy asoslari tubdan qayta ko'rib chiqildi. Ta'lim jarayoni milliy ong, tarixiy xotira, ma'naviy meros va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligida shakllantirila boshlandi. Natijada ta'limning mazmuni ideologik bosimdan xoli holda, shaxsni har tomonlama kamol toptirishga yo'naltirilgan yangi konseptual yondashuvlar asosida ishlab chiqildi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida boshlang'ich ta'limning huquqiy asoslari ham shakllantirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 2 iyuldagi "Ta'lim to'g'risida"gi 636-XII-son Qonunining 9-moddasida umumiy ta'lim uch bosqichdan — (1—IV sinflar), tayanch (V—IX sinflar) va o'rta (X—XI (XII) sinflar) bosqichidan iborat bo'lib, boshlang'ich, tayanch va o'rta maktablarda, boshqa o'rta o'quv yurtlarida (gimnaziyalar, litseylar va boshqalarda) amalga oshirilishi belgilab qo'yildi.

1997-yilda O'zbekiston Respublikasining 29-avgustdagi 464-I-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinishi ta'lim tizimini yanada takomillashtirishda muhim bosqich bo'ldi. Mazkur qonunning 12-moddasida boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'limni egallash uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan bosqich sifatida belgilandi. Shu bilan birga, maktab ta'limining uzluksizligini ta'minlash maqsadida bolalarni birinchi sinfga olti-yetti yoshdan qabul qilish tartibi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yildi. Ushbu me'yor boshlang'ich ta'limni shaxsning intellektual rivojlanishida muhim poydevor sifatida e'tirof etish bilan birga, uning tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etilishiga xizmat qildi.

2017-yildan boshlab Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ta'lim tizimini zamonaviy talablar asosida rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirildi. Xususan, boshlang'ich ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi yaxshilandi hamda ta'lim sifatini oshirish maqsadida xalqaro tajribalar asosida yangi avlod darsliklari ishlab chiqildi.

Yangi avlod darsliklari xalqaro dasturlarni o'quv jarayoniga integratsiyalash uchun imkoniyat yaratadi. Darsliklar va o'quv uslublari xalqaro standartlarga



moslashtirilgan holda, o'quvchilarni yuqori darajadagi baholash tizimlariga tayyorlaydi. Shuningdek, o'quvchilarning intellektual va shaxsiy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan barcha ko'nikmalarni o'rgatish imkoniyatini beradi. Xalqaro dasturlar ta'lim sifatini baholash, o'quvchilarning ko'nikmalarini rivojlantirish, hamda ularni xalqaro maydonda tanitish uchun zarur vositalarni taqdim etadi. Masalan, PISA, TIMSS, OECD, va ISA (International Schools Assessment) kabi xalqaro dasturlar o'quvchilarning matematik, ilmiy, o'qish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini sinovdan o'tkazadi. Ushbu dasturlar nafaqat bilimni, balki o'quvchilarning o'z fikrlarini to'g'ri ifodalash, masalalarni hal qilishdagi yondashuvlarini ham o'rganadi. Xalqaro dasturlarga jalb qilishning eng katta afzalliklaridan biri o'quvchilarning global raqobatbardoshligini oshirishdir. Agar o'quvchilar dastlabki sinflardan boshlab xalqaro ta'lim baholash tizimlariga kirsa, ular o'z bilimlarini boshqa davlatlar bilan solishtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa nafaqat akademik, balki ijodiy va innovatsion qobiliyatlarni ham rivojlantiradi. Xalqaro baholash natijalari mamlakatning ta'lim tizimining rivojlanishini ko'rsatadi va o'quvchilarga global miqyosda tanilish imkoniyatini yaratadi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilgan tub islohotlar va yangilanishlar ilmiy jamoatchilik e'tiborini keng jalb etdi. Natijada ushbu yo'nalishda ko'plab ilmiy maqolalar, tezislar, doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari, monografiyalar, darsliklar hamda o'quv qo'llanmalar yaratildi. Mazkur tadqiqotlarda ta'lim tizimining rivojlanish bosqichlari, uning normativ-huquqiy asoslari, mazmun va shakldagi o'zgarishlar turli metodologik yondashuvlar asosida yoritilgan.

Xususan, Xoshimov O'tkirjon Qo'shmirezayevichning "Mustaqillik yillarida Farg'ona vodiysi viloyatlarida ta'lim sohasidagi o'zgarishlar" nomli tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasida tadqiq etilayotgan mavzu yuzasidan muhim ilmiy natijalar bayon etilgan. Tadqiqotning "O'zbekistonda ta'lim tizimining rivojlanish yo'nalishlari va Farg'ona vodiysida maktabgacha ta'lim tizimidagi o'zgarishlar" deb nomlangan birinchi bobida mustaqillik yillarida ta'lim tizimi tarkibiy jihatdan tubdan



yangilangani asoslab beriladi. Jumladan, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimlari zamonaviy talablar asosida rivojlantirilgani, yangi ta'lim muassasalari barpo etilgani hamda mavjudlari rekonstruksiya qilingani qayd etiladi. Natijada respublika va viloyatlarda ta'lim maskanlari soni ortib, ayniqsa umumiy o'rta ta'lim muassasalari va ularda tahsil olayotgan o'quvchilar soni sezilarli darajada oshgan.

Mazkur yo'nalishda Saidova Mohinur Jonpo'latovnaning "Masofaviy ta'lim sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish" mavzusidagi pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi alohida ilmiy ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotda masofaviy ta'lim sharoitida o'qituvchilarni tayyorlashning nazariy-metodologik asoslari hamda amaliy mexanizmlari kompleks tarzda yoritilgan.

Tadqiqotning tuzilishiga e'tibor qaratilsa, unda masofaviy ta'lim sharoitida metodik tayyorgarlikni takomillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari, bo'lajak o'qituvchilarning bilim faoliyati xususiyatlari hamda kasbiy kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy shart-sharoitlari atroflicha tahlil qilingan. Shuningdek, dissertatsiyaning keyingi boblarida mazkur jarayonni takomillashtirish mexanizmlari, metodik yondashuvlar va ularning amaliy samaradorligi ochib berilgan.

Alohida ta'kidlash joizki, ushbu tadqiqotda masofaviy ta'limning imkoniyatlari bilan bir qatorda, uning mavjud muammolari ham ilmiy asosda yoritilib, ularni bartaraf etish bo'yicha aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Umuman olganda, Saidova M.J.ning mazkur dissertatsiyasi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini zamonaviy ta'lim muhitida, xususan, masofaviy shaklda tayyorlash masalalarini chuqur o'rganishda muhim ilmiy manba bo'lib, tadqiq etilayotgan mavzuning o'rganilganlik darajasini sezilarli darajada boyitadi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda boshlang'ich ta'lim tizimi chuqur transformatsion jarayonlarni boshdan kechirdi va u jamiyat taraqqiyotining muhim strategik omiliga aylandi. Mazkur davrda ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan davlat siyosati asosida boshlang'ich ta'lim nafaqat savodxonlikni



shakllantiruvchi bosqich, balki shaxsning intellektual, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishining poydevori sifatida qayta talqin etildi .

Dastlabki yillarda ta'lim mazmuni mafkuraviy ta'sirdan xoli qilinib, milliy qadriyatlar, tarixiy meros va umuminsoniy g'oyalar asosida qayta shakllantirildi. Natijada boshlang'ich ta'lim tizimi shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida rivojlanib, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va ijtimoiy faollikni shakllantirishga xizmat qila boshladi. Shu bilan birga, o'quv dasturlarining qayta ishlab chiqilishi hamda darsliklarning milliy va zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirilishi ta'lim mazmunining sifat jihatidan yangilanishiga olib keldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 1992-yil 2-iyul, 636-XII-son. – URL: <https://lex.uz/docs/-56418>
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 1997-yil 29-avgust, 464-I-son. – URL: <https://lex.uz/ru/docs/-16188>
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son. – URL: <https://lex.uz/docs/-5013007>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, 2019-yil 29-aprel, PF-5712-son. – URL: <https://lex.uz/en/docs/-4312785>
5. Isoqjanov F. Boshlang'ich ta'limdagi strukturaviy o'zgarishlar // "Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlar" ilmiy konferensiya materiallari. – 2020.
6. Raximova N., Mirzaxmatova X. Yangi avlod darsliklari doirasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalqaro dasturlarga jalb qilish // Miasto Przyszłości Kielce. – 2024. – Vol. 55. – B. 433.
7. Bazarova I.R. O'zbekiston boshlang'ich ta'limidagi o'zgarishlar (Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlari misolida, 1991–2021-yillar). – Andijon: "Hayot nashri", 2024. – 176 b.



8. Xoshimov O'. Mustaqillik yillarida Farg'ona vodiysi viloyatlarida ta'lim sohasidagi o'zgarishlar: tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2020.